

INKLYUZIV KASBIY INNOVATSION FAOLIYATNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika
instituti pedagogika fakulteti pedagogika ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Jalilova Farzona Sirojiddin qizi*

Annotatsiya: Ushbu tezisda inklyuziv kasbiy innovatsion faoliyatning mohiyati, mazmuni va uning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Unda inklyuziv ta'lim sharoitida pedagoglarning kasbiy mahoratini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, innovatsion faoliyatning inklyuziv muhitda qo'llanishi, o'qituvchining kreativ fikrlashi, moslashuvchan pedagogik texnologiyalarni tanlay bilish qobiliyati va ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, kasbiy faoliyat, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiya, kreativlik, kompetensiya.

Аннотация: В диссертационной работе анализируются сущность, содержание инклюзивной профессиональной инновационной деятельности и её значение в современном образовательном процессе. Обосновывается необходимость развития профессионального мастерства педагогов инклюзивного образования на основе инновационных подходов. Рассматриваются особенности применения инновационной деятельности в инклюзивной среде, творческое мышление педагога, умение выбирать гибкие педагогические технологии и механизмы социально-психологической поддержки.

Ключевые слова: инклюзивное образование, профессиональная деятельность, инновационный подход, педагогическая технология, креативность, компетентность.

***Abstract:** This thesis analyzes the essence, content of inclusive professional innovative activity and its significance in the modern educational process. It justifies the need to develop the professional skills of teachers in inclusive education based on innovative approaches. It also highlights the application of innovative activity in an inclusive environment, the teacher's creative thinking, the ability to choose flexible pedagogical technologies, and mechanisms of socio-psychological support.*

***Keywords:** inclusive education, professional activity, innovative approach, pedagogical technology, creativity, competence.*

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'limning insonparvarlik, uzluksizlik, izchillik va inklyuzivlik tamoyillari alohida e'tirof etilgan. Ushbu hujjatga ko'ra, har bir shaxsning ta'lim olish huquqini ta'minlash, uning ehtiyoj va imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'qitish jarayonini moslashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi¹.

Zamonaviy ta'lim jarayonida inklyuziv kasbiy innovatsion faoliyat o'qituvchilardan yangi pedagogik yondashuvlar, kreativ fikrlash, texnologik yangiliklardan samarali foydalanish hamda turli ehtiyojli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Shuning uchun pedagoglarning kasbiy faoliyatida innovatsion g'oyalarni amalga oshirish, ularni inklyuziv muhitga tatbiq etish nafaqat ta'lim sifati, balki ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlarni ta'minlashning ham muhim omiliga aylanmoqda.

Inklyuziv ta'lim bu maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashtirish va sharoitga qarab o'zgaruvchan, g'amxo'rlik bilan yondasha oladigan ta'lim tizimidir². Ushbu ishlar oddiy, me'yorda rivojlangan

¹ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). — Toshkent: LexUz, 2020-yil 23-sentabr.

² Darslik / Madatov I.Y.; O'zR Oliy ta'lim, fan va

bolalar o'quv muassasalarida amalga oshiriladi. Buni amalga oshirish uchun har bir bolaga indi vidual yondashish, nuqsonidan kelib chiqqan holda ma'lum, u uchun qulay sharoit yaratish, kerak bo'lsa, dastur va rejani qisman o'zgartirish lozim. Maxsus tarbiyaga muhtoj bola uyiga yaqin, o'ziga qulay ommaviy bog'cha yoki maktabga qatnaydi. U yerda asosiy ishni tarbiyachi yoki sinf rahbari amalga oshiradi. Inklyuziv ta'lim markazida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bola turadi, unga har tomonlama g'amxo'rlik ko'rsatiladi. Alohida yordimga muhtoj bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim tizimida, birinchi navbatda, bolaning talablari o'rganiladi. Ijobiy tomonlari, qobiliyati hisobga olinadi, kamchiliklari kuzatiladi. Ushbu ta'lim tizimida ma'lum sharoit yaratilishi lozim. Bunga modifikasiya, kompensasiya, adaptasiya, reabilitasiyalar kiradi. Masalan, agarda bola eshitmasa, uni eshitish apparati bilan; yura olmasa – maxsus tarbiyaga muhtojlar aravachasi bilan ta'minlash, qo'lida oddiy qoshiqni ushlay olmasa, uni boshqa qulay uskuna bilan ta'minlash zarur.

Inklyuziv kasbiy innovatsion faoliyatning asosiy turlari:

Innovatsion faoliyat - yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualiy muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat³. Ta'limdagi pedagogning innovatsion faoliyati tuzilishini tahlil qilishda turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, innovatsion faoliyat 4 bosqichda olib boriladi, ya'ni:

- tayyorgarlik bosqichida muammoni tahlil etish asosida aniqlaydi,
- mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalaydi;
- o'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtiradi;
- o'zgarishlarni amalga oshiradi.

Innovatsion faoliyatga nisbatan yondashuvlar:

Gumanistik aksiologiya - aksiologiyaga insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi. Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning o'zini yangilik yaratish jarayoniga bahshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar majmuasini anglatadi.

Akmeologik yondashuv - akmelologiya (acme) yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, yetuk, eng yangi davr degan ma'nolarni bildiradi.

Creativ yondashuv - termini AQShda XX asming 60-yillarida paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim tizimida o'qitish o'qituvchilardan ikki karra mas'uliyat bilan ishlashni talab etadi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ma'lumotli va malaka oshirish kurslarini o'tab inklyuziv ta'lim pedagogik kvalifikatsiyasini olgan o'qituvchilargina inklyuziv sinf o'qituvchisi etib tayinlanishi mumkin. Inklyuziv sinf o'qituvchisi umumiy o'rta ta'lim muassasa Ustavida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda:

- tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini korreksiyalash va me'yorga keltirish ishlarini olib boradi;

- bolalarning faolligini, ta'lim samaradorligini oshiruvchi metodlarni qo'llaydi;

- bolaning diqqat-e'tibori, xotirasi, kuzatuvchanlik, sinchkovlik va boshqa qobiliyatlarini tarbiyalaydi;

- bolaning o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini, bolalarning bilishga doir qiziqishlarini va qobiliyatini rivojlantiradi. Inklyuziv ta'lim jarayonida muassasa tarbiyachisi ham alohida o'rin egallaydi. Tarbiyachi ish faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi-defektologlar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda sog'lom va alohida ehtiyojli bolalar bilan olib

boriladigan mashg'ulotlarni rejalashtirishi hamda shu asosida olib borishi kerak⁴.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv kasbiy innovatsion faoliyat — zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarning kreativligi, moslashuvchanligi va innovatsion yondashuvlar orqali turli ehtiyojga ega o'quvchilarga teng imkoniyat yaratish faoliyatidir. Bu faoliyatning samarali bo'lishi pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tushunishi, individual yondoshuv ko'nikmasi, psixologik qo'llab-quvvatlash va doimiy professional o'sishga intilishi bilan bevosita bog'liq. Shunday qilib, inklyuziv kasbiy innovatsion faoliyat ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladigan strategik yo'nalishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). — Toshkent: Lex.uz, 2020-yil 23-sentabr.
2. Darslik / Madatov I.Y.; O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali, 2024.-10 bet.
3. Z.N.Mamarajabova, B.Q.Subanova, Inklyuziv ta'lim, O'quv qo'llanma, Toshkent 2022; -65-66 bet.
4. U.U.Turamuratov, Z.M.qurbonova, O.K.Mamatmurodov, A.E.Oltiboyev, S.E.Zaripova. Inklyuziv ta'lim. Gospiatal pedagogika. O'quv qo'llanma; Termiz 2024

⁴ U.U.Turamuratov, Z.M.qurbonova, O.K.Mamatmurodov, A.E.Oltiboyev, S.E.Zaripova. Inklyuziv ta'lim. Gospiatal pedagogika. O'quv qo'llanma; Termiz 2024